ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

O‘ZBEK SHEVALARIDA KULOLCHILIK TERMINLARINING O‘RGANILISHI

***Shirinoy Shuhratova*[1]**

Abstarkt

Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi kasb-hunar leksikasining qadimiy va muhim qatlami — kulolchilik terminologiyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish jarayoni tahlil qilingan. Unda kulolchilikka oid so‘zlarning tarixiy ildizlari, semantik va morfologik xususiyatlari, tematik guruhlanishi hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlarda tutgan o‘rni yoritiladi. Tadqiqotda kulolchilik terminlarining xalq og‘zaki ijodi, madaniy meros va lingvokulturologik jarayonlar bilan uzviy aloqasi ilmiy asosda ochib berilgan. Shuningdek, maqolada kulolchilik leksikasining o‘zbek tili tizimidagi qadimiylik, milliylik va madaniy identifikatsiya belgilarini saqlab qolgan sohaviy qatlam sifatidagi o‘rni tahlil etiladi. Ushbu tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy hamda tahliliy usullardan foydalanildi. Tavsifiy usul yordamida kulolchilikka oid so‘zlar yig‘ilib, ularning umumiy xususiyatlari bayon qilindi. Qiyosiy usul orqali ushbu so‘zlar boshqa shevalar bilan solishtirilib, o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Tahliliy yondashuv asosida esa ularning ma’no xususiyatlari va qo‘llanish doirasi o’rganildi.

Kalit so‘zlar: kulolchilik, leksika, terminologiya, semantika, morfologiya, hunarmandchilik, lingvokulturologiya, sohaviy leksika, tematik guruhlanish.

O‘zbek dialektologiyasida shevalarni o‘rganish masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli ravishda yo‘lga qo‘yildi. Bu borada o‘zbek tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, B. Jo‘rayev, T. Qudratov, Sh. Shoabdurahmonov, S. Ibrohimov kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlarda o‘zbek shevalarining tasnifi, ularning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari batafsil yoritilgan. Har bir sheva

[1]**Shuhratova Shirin** - *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti*
E-mail. *shuhratovashirinoy@gmail.com*
ORID ID. *https://orcid.org/0009-0007-9721-3860*
Iqtibos uchun: *Shuhratova Sh. “O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi”*. O‘zbekiston: til va madaniyat: Folklorshunoslik va Shevashunoslik. 2. 138-146. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/FBVP1630

fonetik (talaffuz), leksik (so‘z boyligi) va grammatik (gap tuzilishi) jihatdan adabiy til va boshqa shevalardan farq qilinishi tadqiqotlarda o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida kasb-hunar sohasining leksikasi keng o‘rganilgan. Filologiya fanlari doktori S. Ibrohimov “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi” degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va qisman kulolchilikka ham to‘xtalgan. Shuni aytish kerakki, o‘zbeklar yashaydigan areallarda ayni bir kasb-hunar bo‘lsa-da, ularning ifodalari bo‘lgan so‘zlar ma’nolarida o‘xshashlik bilan birga farqli xususiyatlar ham mavjudki, bu shevaning o‘ziga xosligini bildiradi. Kulolchilik ham shunday sohalardan biridir. Bu soha leksikasini shevalar kesimida o‘rganish uning mohiyatini ham, tarixini ham yoritishga xizmat qilgan bo‘ladi. Shu tufayli ham, Shahrisabz shevasi areali tadqiqot uchun tanlandi. Alal-xusus, Shahrisabz shevasida kasb-hunar leksikasidan biri bo‘lgan kulolchilik leksikasining o‘rganililishi hozirgi o‘zbek dialektologiyasi uchun dolzarb hisoblanadi.

Kulollar, asosan, uy-ro‘zg‘or buyumlarini yasaydilar va ularga ishlov beradilar. Kulollarning asosiy ish quroli **lāj** bo‘lganligi tufayli barcha kulolchilik buyumlari maxsus loylarga ishlov berish orqali yasaladi. Kulollar Shahrisabz va Yakkabog‘ chegarasida joylashgan Qizil daryo atrofidan maxsus **qizil türpāγ** olib kelganlar. Tuproqqa ma’lum miqdorda suv qo‘shilib, **qizil lāj** tayyorlanadi. Loyning bu turi hunarmandlar tilida ǯöšä **(qizil loy)** deb ataladi. Shu sababli Shahrisabz kulollari tomonidan yasalgan buyumlar qizg‘ish rangda bo‘lib, bu ularning uslubi hisoblanadi.

O‘zbek tili leksik tizimida xalq hayoti va turmushi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan sohaviy qatlamlar alohida o‘ringa ega. Shularning eng qadimiy va rang-barang turlaridan biri — kulolchilik leksikasidir. Kulolchilik xalq hunarmandchiligining muhim yo‘nalishi sifatida ming yillik tarixga ega bo‘lib, insoniyatning moddiy madaniyatida beqiyos iz qoldirgan. Bu soha tilshunoslik uchun ham alohida ahamiyatga ega, chunki u xalqning mehnat jarayoni, dunyoqarashi va estetik qadriyatlarini ifoda etuvchi leksik qatlamni tashkil etadi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, kulolchilikka oid atamalar — o‘zbek tili leksikasining qadimiy, o‘ziga xos va ko‘p qatlamli sohaviy terminlar tizimidir. Bu terminlar xalqning hayot tarzi, moddiy ishlab chiqarishi, urf-odatlari va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun kulolchilik leksikasini o‘rganish nafaqat lingvistik, balki etnolingvistik va lingvokulturologik ahamiyatga ham ega. Kulolchilik so‘zlari tildagi kasb-hunar terminlari tizimiga kiradi. Ularning ma’nosi, sinonimlari, ko‘p ma’noliligi va tarixiy o‘zgarishlari o’zbek tilshunoslari tomonidan o’rganilmoqda.

Turli hududlarda kulolchilik buyumlari turlicha nomlanadi. Bu o‘zgarishlar o‘zbek tili shevalarining boyligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilshunosligida kulolchilik leksikasi to‘liq holda alohida tizim sifatida o‘rganilmagan bo‘lsa-da, u haqida dialektologik tadqiqotlar va xalq hunarmandchiligi terminlariga oid izlanishlarda muhim ma’lumotlar keltiriladi. Demak, kulolchilikning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi nafaqat lingvistik, balki madaniy, tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida kulolchilik terminlarini o‘rganish masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida ilmiy yo‘nalishga aylandi. E. Begmatov o‘zining “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari” nomli tadqiqotida kasb-hunar leksikasining o‘zbek tili leksik tizimidagi o‘rnini tahlil qilib, uni faol qatlam sifatida baholagan [Begmatov, 1985; 102]. Shuningdek, T. Tursunova “O‘zbek tili amaliy san’at leksikasi” asarida hunarmandchilik leksikasining, jumladan, kulolchilik terminlarining semantik tizimini aniqlagan [Tursunova, 1978; 64].

Keyingi davrda bu yo‘nalish ilmiy jihatdan yanada chuqurlashdi. M. Abdiyevning “Sohaviy leksikaning sistem tahlili” nomli tadqiqoti kulolchilik va boshqa amaliy san’at leksikasini lingvostruktural tahlil qilishga asos bo‘ldi [Abdiyev, 2005; 85]. 2020-yillarda D. Narzullayeva [Narzullayeva, 2024; 12-16] hamda Z. Mamatqulova [Mamatqulova, 2023; 3-7] tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar natijasida kulolchilik terminlari leksiko-semantik va tematik asoslarda tizimlashtirildi.

Kulolchilik san’ati dastlab uy-ro‘zg‘or ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, keyinchalik estetik va diniy ma’no kasb etgan. Qadimgi Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg‘ona va Shahrisabz hududlaridan topilgan sopol buyumlar sirtidagi naqshlar, yozuvlar ham o‘sha davr tili va leksikasining boyligini tasdiqlaydi [Bulatov, Tursunaliyev, 2002; 23-28]. Aynan shu jarayonlarda “gil”, “xum”, “ko‘za”, “lagan”, “tandir”, “qozon”, “sopol”, “kulol” kabi atamalar shakllanib, keyingi asrlarda o‘zbek tili leksik tizimiga mustahkam kirib qoldi.

Kulolchilik terminologiyasining shakllanishida xalq og‘zaki ijodi ham katta rol o‘ynagan. Masalan, maqollarda uchraydigan “Ko‘za suvda sinadi”, “Kulol ko‘zasi o‘z hovlisida sinadi” yoki “Kulol qo‘lidan chiqqan har idish bir-biridan farq qiladi” kabi maqollar ham kulolchilik terminlarining xalq tafakkuridagi o‘rnini aks ettiradi. Bu holat terminlarning semantik ma’nosini metaforik va ramziy darajada kengaytiradi**.** Shu tarzda, amaliy faoliyat so‘z tizimi sifatida shakllanib, xalq tafakkurining bir qismi bo‘lib qolgan.

O‘zbek tilshunosligida kasb-hunar leksikasining, xususan,

kulolchilik sohasiga oid terminlarning ilmiy o‘rganilishi bir necha bosqichda shakllangan. Bu bosqichlar tilshunoslik yo‘nalishlarining rivojlanishi, ilmiy metodologiya va leksik tahlil yondashuvlari bilan bevosita bog‘liq.

1. Dastlabki bosqich (1940–1970-yillar):

Bu davrda o‘zbek tili leksikologiyasi fan sifatida shakllana boshladi. S. Ibrohimovning “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi” nomli tadqiqoti o‘zbek tili tarixida sohaviy leksika masalalariga bag‘ishlangan ilk ishlar sirasiga kiradi [Ibrohimov, 1959; 6]. U kasb-hunar bilan bog‘liq so‘zlarning shevalardagi qo‘llanishini, ularning ma’no va shakl xususiyatlarini o‘rgangan. Ibrohimovning ishida kulolchilik terminlari ham regional jihatdan o‘rganilib, Farg‘ona vodiysidagi kulolchilik atamalari tizimi tahlil qilingan.

1960-yillarda Sh. Shoabdurahmonov o‘zbek tili adabiy me’yorining shakllanishi bilan bir qatorda xalq shevalarida mavjud kasb-hunar leksikasining tildagi o‘rni haqida ilmiy fikr bildiradi [Shoabdurahmonov, 1960; 98]. U xalq og‘zaki tili va adabiy til o‘rtasidagi leksik almashinuvda aynan kasbiy so‘zlar, jumladan kulolchilik terminlari faol qatnashganini ta’kidlaydi.

2. Tizimlashtirish bosqichi (1970–1990-yillar):

Bu davr o‘zbek tilshunosligida leksik-semantik tizimlarning shakllanish davri hisoblanadi. E. Begmatovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari” nomli asarida kulolchilik leksikasi kasb-hunar terminologiyasining bir qismi sifatida ko‘rib chiqilgan [Begmatov, 1985; 107]. Begmatov sohaviy terminlarni lug‘at tizimining alohida qatlamlari sifatida tahlil qilib, ularning semantik tuzilmasini aniqlagan. T. Tursunovaning “O‘zbek tili amaliy san’at leksikasi” nomli asari esa bu yo‘nalishda asosiy ilmiy manbalardan biri bo‘lib, unda kulolchilik, zargarlik, to‘quvchilik kabi sohalarga oid terminlar tasniflangan [Tursunova, 1978; 72]. Muallif kulolchilikka oid leksik birliklarni semantik belgilariga ko‘ra guruhlagan va ularni “xomashyo”, “asbob”, “buyum” hamda “naqsh” nomlari tarzida tasniflagan. Shu tarzda, u kulolchilik terminologiyasining tizimli leksik-semantik asoslarini belgilab bergan.

3. Lingvostruktural bosqich (1990–2010-yillar):

Bu davrda kulolchilik terminlarini struktural tahlil qilishga e’tibor kuchaydi. M. Abdievning “Sohaviy leksikaning sistem tahlili” (Samarqand viloyati kasb-hunar leksikasi asosida) nomli tadqiqotida sohaviy terminlar semantik maydonlar orqali o‘rganilgan [Abdiyev, 2005; 93].

4. Zamonaviy bosqich (2010-yildan hozirgacha):

2010-yillardan boshlab kulolchilik terminlari yangi ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganilmoqda. D. Narzullayeva “Kulolchilik ter-

minlarining leksiko-semantik guruhlari” nomli maqolasida bu soha terminlarini aniq leksik-semantik guruhlarga ajratgan va ularning tildagi oʻrnini izchil tahlil qilgan [Narzullayeva, 2024; 16]. U oʻz tadqiqotida kulolchilik atamalarini besh guruhga — xomashyo, asbob, buyum, naqsh va rang nomlariga boʻlib oʻrganadi. Shuningdek, Z. Mamatqulova “Rishton kulolchilik terminlarining tematik tasnifi” nomli ishida terminlarning tematik va morfologik tasnifini beradi [Mamatqulova, 2023; 3-7]. Uning tahliliga koʻra, kulolchilik terminlari giperonimik va giponimik aloqalar asosida tizimlanadi. Masalan, tovoq giperonimi oʻz ichiga charx tovoq, naqshin tovoq, la’li tovoq kabi giponimlarni oladi. Bu esa kulolchilik leksikasining ichki semantik tuzilishini aniq koʻrsatadi. Soʻnggi yillarda kulolchilik terminologiyasi xalqaro miqyosda ham oʻrganilmoqda. Nuraliyev Ilyos Ismoilovichning “Morphological Features of the Pottery Lexicon in English and Uzbek Languages” nomli maqolasida keramika leksikasining morfologik shakllanishi, qoʻshimchalarning funksiyasi va struktural tahlili oʻrganilgan [Nuraliyev, 2022; 4-7].

Atabayeva Mehriniso oʻzining “Xorazm kulolchilik leksikasi tahlili” maqolasida quyidagilar haqida yozadi: “…Har bir kulolchilik maktabi oʻzining foydalanayotgan naqsh uslublari, yasayotgan buyumlarining nomlari, ularning leksik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Xorazm kulolchilik maktabi ham oʻziga xos noodatiy maktab yarata olgan. Ularda mavjud boʻlgan va faol qoʻllanilayotgan leksikalar lingvistik tahlilga muhtojdir. Kulolchilik jamiyatimiz, xalqimiz ma’naviyati, milliyligining ajralmas boʻlagi. Uni oʻrganish, tadqiq qilish, leksikasining oʻziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan holda keyingi avlodga yetkazish barcha olimlar oldida turgan muhim masalalardan biridir”. Maqolada S.Ibrohimovning “Fargʻona shevalari kasb-hunar leksikasi” monografiyasi haqida toʻxtalib oʻtadi. Unda turli sohalar leksikasi, xususan, kulolchilik va terminologiyaning nazariy masalalari oʻganilganligini, mazkur monografiya lingvistik jihatdan kulolchilik leksikasi tahliliga bagʻishlangan yirik va yagona tadqiqot ishi ekanligini ta’kidlaydi [Atabayeva, 2025; 152-154].

Mannonova Maftuna “Oʻzbek kulolchilik san’atiga xos terminlarning oʻrganilish ahamiyati” maqolasida oʻzbek kulolchilik san’atida qanday terminlar ishlatilishi va ularning semantik va leksik qurilishini oʻrganadi. Bundan tashqari zamonaviy tilshunoslikda arxaizmlarning oʻrnini oʻrganadi. Maqolada XIX asrda Oʻrta Osiyoda tojik va oʻzbek xalqlari oʻrtasida kulolchilik juda keng rivojlanib Gʻijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo boʻla boshlanganligi keltirilgan [Mannonova, 2024; 248-250].

Zamonaviy tadqiqotlarda kulolchilik terminologiyasi koʻp fanli

yondashuvlar asosida o‘rganilmoqda. Xususan, M. Xo‘jayeva o‘zining “Ingliz va o‘zbek tillarida hunarmandchilik terminlarining semantik va lingvostatistik tavsifi” nomli maqolasida kulolchilik leksikasining chastota, semantik faollik va statistik strukturasini tahlil qilgan. Bu bosqichda kulolchilik leksikasining o‘rganilishi faqat tilshunoslik doirasida emas, balki madaniyatshunoslik, tarix, san’atshunoslik bilan uzviy bog‘liq tarzda olib borilmoqda. Shu boisdan, hozirgi o‘zbek tilshunosligida kulolchilik terminologiyasi interdisiplinar ilmiy yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Kulolchilik terminlari semantik jihatdan nafaqat tildagi predmetlarni nomlash, balki xalqning dunyoqarashi va estetik didini ifodalovchi lingvokulturologik birliklar sifatida ham qaraladi. Masalan, firuza va moviy rang nomlari qadimda osmon va poklik ramzi sifatida qaralgan. Shu bois bu ranglar kulolchilik naqshlarida keng qo‘llanilgan. M. Xo‘jayeva kulolchilik terminlarini ingliz tili bilan qiyoslab, semantik va lingvostatistik tahlilini amalga oshirgan. Uning fikricha, kulolchilikka oid terminlar o‘zbek tilida yuqori semantik zichlikka ega bo‘lib, xalqning milliy madaniy xotirasini ifodalaydi [Xo‘jayeva, 2023; 496-499]. Nuraliyev Ilyos Ismoilovich esa kulolchilik terminologiyasini morfologik nuqtai nazardan o‘rganib, o‘zbek tilida “keramika” terminlari affiksatsiya va kompozitsiya jarayonlari orqali yangi shakllar yaratishga moyilligini qayd etgan [Nuraliyev, 2022; 4-7].

Zamonaviy bosqichda kulolchilik terminologiyasi elektron lug‘atlar, madaniy meros platformalari va lingvistik korpuslar orqali tizimlashtirilmoqda. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi Til va adabiyot instituti tomonidan ishlab chiqilayotgan “O‘zbek sohaviy terminlari elektron bazasi” loyihasida kulolchilik leksikasiga alohida bo‘lim ajratilgan [O‘zbek sohaviy terminlari elektron bazasi 2024].

Kulolchilik leksikasi o‘zbek tilining sohaviy qatlamlari orasida eng qadimiy, milliy va madaniy jihatdan boy sohalardan biridir. Ushbu qatlam xalqning turmush tarzi, tarixiy tajribasi, estetik dunyoqarashi va mehnat faoliyatini til tizimida mujassamlashtiradi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kulolchilik terminologiyasi o‘zbek tilida ko‘p bosqichli taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Ibtidoiy davrdagi amaliy faoliyatni ifodalovchi so‘zlardan boshlab, hozirgi zamon xalqaro terminologiyagacha bo‘lgan jarayon uzluksiz lingvistik rivojlanishning natijasidir. Bu rivojlanish davomida o‘zbek tili leksik tizimi turkiy, fors-tojik, arab, rus va hatto ingliz tilidagi o‘zlashmalarni o‘z ichiga olgan holda boyib borgan. Kulolchilik terminlari ko‘p qatlamli semantik tizimga ega bo‘lib, ular tarixiy-etnik jarayonlar, til taraqqiyoti va madaniy merosning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllanib kelgan. Shuningdek, kulolchilik terminologiyasi lingvokulturologik

birliklar sifatida xalqning estetik tafakkurini aks ettiradi. Hududiy kulolchilik maktablarining leksik farqlanishi o‘zbek dialektologiyasida alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida rivojlanishi lozim. Zamonaviy bosqichda kulolchilik terminlari korpus lingvistika, statistik tahlil va raqamli platformalar yordamida yanada keng ilmiy asosda o‘rganilishi mumkin. Kelgusida kulolchilik terminologiyasini raqamli lingvistika va korpus lingvistika yo‘nalishlari asosida o‘rganish, ularni xalqaro ilmiy bazalarga integratsiya qilish o‘zbek tilshunosligining strategik vazifalaridan biri sifatida dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar

Abdiyev M. *Sohaviy leksikaning sistem tahlili*. – Toshkent: Fan, 2005.

Begmatov E. *Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.* – Toshkent: Fan, 1985.

Bulatov S., Tursunaliyev N. *Kulolchilik san’ati*. – Toshkent: Kamalak, 2002.

Ibrohimov S. *Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi*. – Toshkent, 1959.

Mamatqulova Z.R. *Rishton kulolchilik terminlarining tematik tasnifi,* 2023.

Narzullayeva D. *Kulolchilik terminlarining leksik-semantik guruhlari,* 2024.

Nuraliyev I.I. *Morphological Features of the Pottery Lexicon in English and Uzbek Languages*. – Academic Research Journal, 2022.

Xo‘jayeva M.F. *Ingliz va o‘zbek tillarida hunarmandchilik terminlarining semantik va lingvostatistik tavsifi.* – O‘zMU axboroti, 2023.

O‘zbek sohaviy terminlari elektron bazasi. – O‘zbekiston FA Til va adabiyot instituti ma’lumotlari, 2024.

Shoabdurahmonov Sh. O*‘zbek adabiy tili va xalq shevalari*. – Toshkent, 1960.

STUDY OF POTTERY TERMS IN UZBEKISTAN DIALECTS

Shirinoy Shuhratova[1]

Abctract

This article analyzes the formation, stages of development and the process of studying pottery terminology, an ancient and important layer of the professional lexicon of the Uzbek language. It highlights the historical roots, semantic and morphological characteristics, thematic grouping and role of words related to pottery in modern scientific approaches. The study reveals the inextricable connection of pottery terms with folk oral culture, cultural heritage and linguoculturological processes on a scientific basis. The article also analyzes the role of pottery lexicon as a sectoral layer in the Uzbek language system that has preserved signs of antiquity, nationality and cultural identification. This study used descriptive, comparative and analytical methods. Using the descriptive method, words related to pottery were collected and their general characteristics were described. Using the comparative method, these words were compared with other dialects and their similarities and differences were identified. Based on an analytical approach, their semantic properties and scope of application were studied.

Key words*:* pottery, lexicon, terminology, semantics, morphology, craftsmanship, linguoculturology, sectoral lexicon, thematic grouping.

References

Abdiyev M. *Sohaviy leksikaning sistem tahlili.* – Toshkent: Fan, 2005.

Begmatov E. *Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.* – Toshkent: Fan, 1985.

Bulatov S., Tursunaliyev N. *Kulolchilik san’ati.* – Toshkent: Kamalak,

[1]*Shuhratova Shirin - Master’s student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi*
E-mail: ***shuhratovashirinoy@gmail.com***
ORID ID - *https://orcid.org/0009-0007-9721-3860*
For citation: *Shuhratova Sh. 2025. “Study of pottery terms in uzbekistan dialects*”. Uzbekistan: language and culture: Folklore and Linguistics. 2. 138-146.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/FBVP1630

2002.

Ibrohimov S. *Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi*. – Toshkent, 1959.

Mamatqulova Z.R. *Rishton kulolchilik terminlarining tematik tasnifi,* 2023.

Narzullayeva D. *Kulolchilik terminlarining leksik-semantik guruhlari*, 2024.

Nuraliyev I.I. *Morphological Features of the Pottery Lexicon in English and Uzbek Languages*. – Academic Research Journal, 2022.

Xo‘jayeva M.F. *Ingliz va o‘zbek tillarida hunarmandchilik terminlarining semantik va lingvostatistik tavsifi.* – O‘zMU axboroti, 2023.

O‘zbek sohaviy terminlari elektron bazasi. – O‘zbekiston FA Til va adabiyot instituti ma’lumotlari, 2024.

Shoabdurahmonov Sh. *O‘zbek adabiy tili va xalq shevalar*i. – Toshkent, 1960.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com